

**BADIY-ESTETIK IDEAL VA HAQIQAT JOZIBASI***Nilufar Dilmurodova,**TDIU dotsenti, PhD**Omina Toirova,**TDIU BIA-04 guruhi talabasi*

Ma'lumki, mutolaa, faqat mutolaa badiiyat sehri va haroratini teranroq tuyish, obrazlar qiyofasida, ramzlar va iboralar tarkibida jam nafosatni va ruhiy evrilishlar miqyosini yaqqolroq idrok etishga ko'mak beradi. So'z olamida yashash ko'nikmasi tufayli tafakkurimiz, ong-shuurimiz va qalbimizda badiiy-estetik sintez, badiiy-estetik inqilob sodir bo'ladi, so'z bilan fikr, botin bilan zohir, dil bilan dunyo birlashadi. Ana shu asnoda ezgu ma'no – estetik ideal vujudga keladi.

Nemis olimi G.Gegel bu murakkab holatni kuzatib: "...har qanday so'z o'z-o'zicha emas, balki ma'nosi bilan ahamiyatlidir. Ruh, jon-u dil insoniy ko'z, yuz, teri orqali, xullas, insonning butun qiyofasi orqali gavdalaniadi va uning ma'nosi bevosita vogelikdagiga qaraganda qandaydir boshqacharoq bo'ladi", - deb ta'riflagan edi.

Ana shu ilmiy-estetik e'tirofga ko'ra, demak, har qanday janrdagi badiiy asar, xususan, hikoya janrida mazmun-mohiyat jozibadorligi teran ma'no-maqsad vositasida ta'min etilishi lozim.

Ko'plab iqtidorli qalamkashlar singari, Xurshid Do'stmuhammad ijodi, malakasi va dunyoqarashi shakllanishiga jiddiy ta'sir o'tkazdi. Adib bu jarayon faollaridan bo'lib, ulkan ma'naviy-ma'rifiy boylik hisoblangan so'z olamining kuzatilmagan qatlamlarini kuzatishga kirishdi, oddiy so'zni badiylashtirish, ya'ni so'zdagi isyonkorlik ruhini ilg'ash va anglashga intildi, poetika zamirida pinhon anglash qiyin mantiqni anglash mashaqqatidan cho'chimadi, qolaversa, bu mantiqnni hissiy idrok etish tamoyillariga suyandi.

Adib so'z san'atini jo'n hodisa sifatida tushunmaydi, uni moddiy va ruhoni y dunyo sirlarini kashf etuvchi mo'jizaviy vosita – barcha fanlar bilan aloqada rivojlanuvchi ezhulik quroli deb biladi. Shuning uchun ham, har bir asarida badiiy-



estetik mezonlarni, binobarin, estetik idealini ohorli me'yorlar bilan boyita bordi, badiiyat bilan ko'ngil ko'zini topishtirish orqali moddiy va ruhoniy dunyo, turli zuhuriy va botiniy qiyofaga ega bo'lgan odamlar, jamiyat va insonlar psixologiyasi ko'zgusi sanalgan har xil tarixiy va zamonaviy voqeа-hodisalarни sinchkovlik bilan kuzatadi.

Adib adabiyot masalalari, xususan, hikoyachilik borasida olib borgan kuzatuvarlar ijodiy jarayon zavqi-qiyognog'i, so'z san'atiga xos estetik-falsafiy tamoyillar, ijodkor dunyosi, jasorati va irodasiga borib taqaladi. Kichik epik turga mansub bo'lgan hikoya poetik miqyosi aslida so'z dunyosi qadar kengligini, ana shu poetik kenglikda turli ijtimoiy va axloqiy muammolarni qamrab olish imkonini mavjud ekanini teran anglagan adib quyidagi dolzarb nazariy mulohazani o'rtaga tashlaydi: "Har safar yangi hikoyani xayolda pishitib yurgingizda, uni qog'ozga tushira boshlaganingizda avvalgilaridan zo'rroq asar yarataman degan tuyg'u sizga rag'bat berib turadi. Bu foydali tuyg'u, lekin hikoya yaratish musobaqa emas. Qaysidir boshqa yozuvchidan yoki bo'lmasa o'zimning burungi hikoyalarimdan o'zib ketadigan yangisini yozishga intilish emas. Har bir hikoya – yangi ijodiy kayfiyat! Voqelikni o'zgacha idrok etishga harakat!"

Demak, adib an'anaviy va moderncha usullarni yonma-yon yoki tutashtirib samarali qo'llar ekan, avvalo, o'zida yangicha ijodiy kayfiyat uyg'otishni, eng muhimi esa, qadimiy dunyoni – tabiat va jamiyatni yangicha idrok etish, odamzod ko'nglini yangicha tushunishni xohlaydi. Har bir hikoya orqali yuz bergen yoki yuz berishi mumkin bo'lgan voqeа-hodisalr ichkarisiga chuqurroq kirib boradi, ayni paytda, yaxshi-yomon ichra g'imirlab, o'zligini topishga urinadigan odamni yoki bunday intilishdan olisdagi odam dilini badiiy talqin obyekti qilib oladi. Bunday kuzatuvarlar orqali tuygan quvonchlari va azoblari ruhlantiruvchi quvvatga ega bo'ladi.

So'z san'ati kenglikka intilish, joziba imkoniyatlari, hurlik ne'matlaridan oziqlanish, ya'ni qadimiy olamning rang-barang qiyofasini shaklan va mazmunan turfa poetik bo'yoqlar vositasida namoyon etishni yoqtiradigan ijtimoiy-badiiy va falsafiy-estetik hodisadir.



Adib hikoyaning kichik olamida katta olam – katta estetik ko‘lam yaratish orqali estetik ideali yo‘nalishini belgilaydi, o‘quvchini, moddiy va ruhoniyligini olamga jalb qilish barobarida, badiiy-estetik idealni ro‘yobga chiqaruvchi vogelar ishtirokchisiga aylantiradi. Natijada o‘quvchi muayyan asar kompozitsiyasini tarang ushlab turgan badiiy-estetik ideal va u namoyon etgan haqiqat jozibasidan ajralolmay qoladi, mutolaa jarayonida uning ma’rifiy-tarbiyaviy miqyosi va boshqa turli qirralari qayta-qayta kashf etadi.

Adib hikoyalarida hayotiy go‘zallik bilan badiiy go‘zallik, an’anaviy va majoziy modern tamoyillari asosida, hayotiy ziddiyatlar bilan qalb tebranishlari uzviyligi zaminida hamkorlik qilishga kirishadi, mana shu jarayon keskin poetik ruhda kechishi uchun teran hayotiy ma’nolar tashuvchi so‘zlar ishtirok etadi, *faol so‘zlar inqilobi – taranglashgan kompozitsiya botini va zuhuridagi poetik mutanosiblik – erkin badiiy-falsafiy fikrlash yo‘sini – ruhiy olam tebranishlari talqini badiiy sintez ishonarli me’yorlar bo‘yicha amalga oshganidan darak beradi*, ayni shu tushunchalar alal-oqibat hayotiy haqiqat estetik idealga aylanib borishini ta’minlaydi.

Muhimi, adib individuallasi uslubi, an’anaviy realizm va majoziy modern usullaridan oziqlangan holda, ana shu to‘rt tushuncha zaminida shakllangani kuzatiladi. Adib qalamini hayotning qadam tegmagan turli so‘qmoqlari, ruhiyatning nazar tushmagan murakkab qatlamlariga safarbar qilishdan cho‘chimagani, obyektiv borliqni o‘z “men”i orqali hissiy idrok etish malakasini to‘laqonli o‘zlashtirgani uchun uslubi betakror individuallasi xarakter kasb etgani shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G.Gegel. Go‘zallik va badiiy ijod (“Estetika” kitobidan). “Jahon adabiyoti” jurnali. 2006-yil, yanvar.
2. Xurshid Do‘stmuhammad. Beozor qushning qarg‘ishi. Hikoyalar. “Sharq”, T.: 2007 yil, 3-bet.
3. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. Yangi o‘zbek adabiyoti: ildizlar, belgilar, bosqichlar. “Sharq yulduzi” jurnali, 2007-yil, 1-son.